

# Fanlar akademiyasi ilmiy xodimlari o'rtasida badminton va mini futbol bo'yicha musobaqalar o'tkazildi

Joriy yil 4-5-iyun kunlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Birlashgan kasaba uyushmasi sovrini uchun FA ilmiy tashkilotlari xodimlari o'rtasida badminton va mini futbol bo'yicha musobaqalar o'tkazildi.





Unda mini futbol bo'yicha Matematika instituti jamoasi 1-o'rin, Materialshunoslik instituti jamoasi 2-o'rin, Yadro fizikasi instituti 3-o'rinni egallagan bo'lsa, badminton bo'yicha erkaklar o'rtasida o'tkazilgan bellashuvlarda Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti 1-o'rin, Umumiy va noorganik kimyo instituti 2-o'rin, Yadro fizikasi instituti 3-o'rin, ayollar o'rtasidagi bellashuvlarda Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti 1-o'rin, Materialshunoslik instituti 2-o'rin, Botanika instituti 3-o'rinni egalladilar.





G'olib bo'lgan jamoalarga pul mukofotlari, diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Eslatib o'tamiz, Fanlar akademiyasi tizimida an'anaviy tarzda o'tkaziladigan "Akademiada" sport musobaqalari joriy yil 11-iyun kuni Toshkent Botanika bog'ida o'tkaziladi.